

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-6/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdullayeva D.A. Studying rhetorical sentence in terms of its semantic structure and categories	6
Akhmedova S.H., Shokulova L.B. Characteristic features of written discourse in the english language	8
Alimova S.S. Ingliz tilida otlarning kelishik grammatik kategoriyasi	10
Allaberdiev A. Buxoro o'g'uz shevalarida unli tovushlarning fonetik o'zgarishi	12
Amanlikova N.R. O'zbek va rus tillarida grammatik tizimining umumiy xususiyatlari tahlili	15
Arzieva B.A. Lexical units of funeral and mourning rites in the karakalpak and english languages	19
Avlaeva S.B. The essential role of neologisms in COVID-19 to enlarge vocabulary	21
Axmedova S.H., Mizrobova V.B. "Diskurs" terminining nazariy va amaliy xarakteristikasi	23
Azimova M.P. Theory of "concept", "conceptual semantics" and "linguistic semantics" in modern cognitive linguistics	26
Azizova N.O. The purification of violence and the translation of fairy tales	30
Baxranova D.U. Koreys tilida frazeologizmlarning tarkibiy jihatdan tuzilishi	32
Bazarova Sh.Sh. Feministik syujetda "ayol" konseptining qiyosi	35
Boboqulova G.Sh. Tohir Malikning "Shaytanat" asaridagi madaniyat xususiyatlari	39
Borasulova D.D. "Firdavs ul-iqbol" asarining o'rganilishi	41
Bozorova R.Sh. Gidropoetonimlarni qiyosiy tadqiq qilish	43
Cho'liyeva N.A'. Badiiy zamon va makon muammosining o'rganilishiga doir tadqiqotlar tizimi	46
Djumayeva N.D., Abduraxmonova M. Ingliz va o'zbek xalqlari diniy qadriyatlari xususida	48
Djumayeva N.D., Murodova M. Qirol Artur haqidagi afsonalarda ingliz madaniyatining ifodalanishi	50
Elmuratova U.M. Koreys va o'zbek tillarida sifat so'z turkumining sintaktik vazifalari	53
Erbutayeva Sh.U. "O'zbek tilining izohli lug'ati" tarkibidagi ba'zi funksional ko'makchi vazifasida qo'llanilgan so'zlar tahlili	55
Eshmuradov Sh.X. Frazeologizmlar xalq dunyoqarashining timsoli sifatida	57
Fatullayeva K.R. Tibbiy birliklarning leksik-semantik munosabatlari	59
Ganiyeva Sh.A. Frazeologik kontaminatsiya masalalari	62
Ibragimov X. Nutq va xalq tili munosabati	64
Irgasheva U.A. Zamonaviy tilshunoslik doirasidagi baholash toifalariga yondashuvlar	66
Iskandarova A.R. O'zbek va rus tillarining so'z shakllanishining umumiy xususiyatlari	69
Haydarov A.A., Aminova Z.R. Ingliz va o'zbek tillarda leksemalarning konnotativ ma'nolari	71
Jarkinova T.A. Yusuf Shomansurning so'z qo'llash mahorati	74
Jumaniyozov A. Beruniy va sanskrit tili	77
Kabilova S.A. O'zbek va ingliz tillarida evfemizmlarning manipulyatsiya usullari va vositalari	80
Kasimova R.R., Alimova V.B. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida badiiyat, uning yuzaga kelish omillari va mazmun-mohiyati	83
Khadjimuratova U. Functioning of diplomatic vocabulary in texts in english and russian business writing	87
Khamdamova D. The features of english pronunciation	90
Komiljonova K.G'. Erkin Vohidov she'riyatida tanosib san'atining qo'llanishi	91
Madaliev D.B. Problems in translation accounting-auditing terms and analyzing terms	93
Mamatov R. Nemis adibi Gerta Myullerning poetik asarlarini shakllanishida ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari	96

Shuni ta'kidlash kerakki, shunga o'xshash diniy matnlarning o'ziga xos jihatlari va pragmatolingvistik tasnifini berishda nafaqat uning shakl hamda mazmuniga balki ma'lum bir madaniyatning diniy qadriyatlarini hamda urf-odat, an'analaridan kelib chiqib hisobga olish kerak. Yuqorida aytib o'tilgan holatlarda esa, Xristianlik va Musulmonlik o'rtasidagi farqlardan, diniy qadriyatlardan kelib chiqib uning madaniyatdagi rolini hisobga olish kerak. Shuningdek ingliz tilidan o'zbek tiliga yoxud o'zbek tilidan ingliz tiliga matnlarni tarjima qilishda ikkala madaniyatning pragmatik xususiyatiga e'tibor qaratish lozim.

Til – millat ko'zgusi, xalq madaniyatining aksidir. Xalq madaniyatining bir bo'lagi bo'lgan diniy qadriyatlar ham tilda yaqqol namoyon bo'ladi.

REFERENCES:

1. Shayx Muhammad Avvoma "Hadisi Sharifning o'rni". Toshkent 2018-15b
2. Mirzo Kenjabek "Ibodot" she'ri. Toshkent 2004- 22b
3. Abdullayev M.M. «Прагматические аспекты изучения политического медиадискурса» Toshkent 2021- 75b
4. Valiyev M.S. «Лингвистические основы изучения языка религиозной сферы в современной германистике» Toshkent 2022- 36b
5. Sattorov O.B. "Tarjimada pragmatika tushunchasi va tarjimashunoslikda pragmatikaning o'rni" Toshkent 2022- 14b
6. Sh.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz".-Toshkent. Ozbekiston: 2017- 457b
7. www.lingvo-plus.ru
8. www.lingvomaster.ru

UO'K 808.5

QIROL ARTUR HAQIDAGI AFSONALARDA INGLIZ MADANIYATINING IFODALANISHI

N.D.Djmayeva, katta o'qituvchi, PhD, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro
M.Murodova, magistrant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Har qanday til madaniyat mahsuli bo'lib, bu ikki tushuncha o'zaro chambarchas bog'liq. Ushbu maqolada ingliz xalqining milliy afsonasi hisoblangan "Qirol Artur" afsonalari lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan va undagi o'ziga xos xususiyatlar izohlangan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, madaniyat, lakuna, din, mentalitet, abstrakt, sema, ekvivalentlik, diskurs.

Аннотация. Любой язык является продуктом культуры, и эти два понятия тесно взаимосвязаны. В этой статье обсуждаются лингвокультурологические особенности дискурса "Король Артур", который считается национальной легендой английского народа, и объясняются его особенности.

Ключевые слова: лингвокультурология, культура, лакуна, религия, менталитет, абстракция, сема, эквивалентность, дискурс.

Abstract. Any language is a product of culture, and these two concepts are closely related. This article linguistically discusses the discourse of "King Arthur", considered a national legend of the English people, and explains the linguocultural peculiarities of the legend.

Keywords: linguoculturology, culture, lacuna, religion, mentality, abstract, sema, equivalence, discourse.

Til - madaniyat ko'zgusi, uni aks ettirish vositasidir, chunki har qanday til milliy an'analarni, adabiyotni, tarixni, iqtisodiy munosabatlarni o'zida mujassam etadi. O'z davrining yirik tilshunosi va antropologlaridan biri Edvard Sapir, «Til madaniyatni o'rganishda yo'l ko'rsatuvchi vositadir. Tilni o'rganishda nafaqat so'zlar, til bo'laklari va nutqni, balki o'rganilayotgan til mamlakatining madaniyati, dunyoqarashi, turmush tarzi va urf-odatlarini ham bilish muhimdir»[1] deb ta'kidlaydi. Bu o'z navbatida, tilshunoslikning yangi sohasi, ya'ni lingvomadaniyatshunoslik evolyutsiyasining paydo bo'lishiga olib keldi. Lingvomadaniyatshunoslikni o'rganish - bu til va madaniyatga asoslangan va hali chuqur tahlil va tadqiqot qilinishi kerak bo'lgan dolzarb yo'nalish.

V.V.Vorobyovning fikricha, bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin, chunki lingvokulturologiyaning obyekti shaxslar tomonidan yaratilgan subyektiv obrazlar, ma'no va qadriyatlar dunyosi, aniqrog'i, ularning semantik munosabatlari[2].

Uning yangiligi va to'liq o'rganilmaganligi va turli fikr va qarashlarning mavjudligi haligacha ko'p ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Binobarin, turli mamlakatlar olimlari til va madaniyat masalasini turli yo'nalishlarda o'rganishgan: taniqli tilshunos olimlar (Yu.Sorokin, V.Telia, E.Vereshchagin, A.Veybitskaya, V.Kostomarov, D.Olford, D.Xeims va boshqalar) hamda faylasuflar (G.Brutyan, E.Markaryan va boshqalar) muhokama qiladilar.), psixologlar (L.Vygotskiy, A.Leontev, V.Petrenko, P.Gulviste) turli yo'sinlarda tadqiq qilganlar. Keyingi yillarda tilshunoslikning alohida tadqiqot sohasi sifatida A.Krasnix, V.Maslova, D.Gudkov, D.Ashurova kabi olimlarning sa'y-harakatlari orqali ushbu mavzu dolzarb tahlil mavzusiga aylandi. [3]

Tadqiqotimiz obyekti ingliz milliy afsonasi "**King Arthur and the Knights of the Round Table**" bo'lib, tadqiqot maqsadi afsona diskursining lingvomadaniy jihatlarini aniqlashdan iborat. Britaniya mentaliteti va madaniyatining afsona diskursida aks etishi tahlil qilingan.

"Arise, Lord King, for the enemy is come; even Ambrosius and Uther, upon whose throne thou sittest--and full twenty thousand with them--and they have sworn by a great oath, Lord, to slay thee, ere this year be done; and even now they march towards thee as the north wind of winter for bitterness and haste."[4]

Ushbu berilgan parcha lingvomadaniy xususiyatlarni o'zida jamlagan birliklar bilan to'la bo'lib, ularga birma-bir izoh beramiz. Dastlab, "**Lord King**" va "**throne**" so'zlari faqat ingliz tilidagi nutq uchun, ayniqsa afsonalar va hikoyalar uchun juda ko'p qo'llaniladi, chunki ular mamlakatning hukumat tizimiga tegishli bo'lib, asrlar davomida Britaniya jamiyatining til tizimida shakllangan.

"**Great oath**" iborasi din bilan aloqador bo'lib, nasroniylik ibodatlarida biror narsa qilish yoki qilmaslik uchun Yaratgan nomidan qasam ichish uchun ishlatilgan.

"**The north wind of winter for bitterness and haste**" ingliz muhitidagi ob-havo sharoitini ko'rsatadigan idiom bo'lib, qish fasli qo'shinning g'azabli kayfiyatini ifodalovchi tarzda ishlatilgan, bu esa jamiyatda qishning yumshoq emasligini, shuning uchun til foydalanuvchilari bu faslni achchiq yoki shoshqaloqlik ma'nosida ishlatishga odatlangani ko'rishimiz mumkin. Barchamizga ma'lumki, ingliz jamiyati asrlar davomida monarxiya tizimi orqali boshqarilganligi sababli, bu davlat hududini tasvirlash uchun ishlatiladigan bir qator so'zlarni yuzaga keltirgan.

There were many small kingdoms in Britain and each kingdom had its own king.[5]

Ushbu jumalalarda **kingdom** so'zi respublika, amirlik, mamlakat yoki federatsiya kabi o'ziga xos hududlarda turlicha bo'lgan yirik hududiy birlikni tasvirlash uchun ishlatiladigan so'z, shuning uchun u faqat qiro'l yoki qirolicha boshchiligidagi monarxiya boshqaruv shakli uchun xosdir.

The King of Cornwall was named Gorlois. [6]

Britaniyada ma'lum bir mamlakat birligini nomlash ko'pgina hududlardan keskin farq qiladi, aniqrog'i, **-wall, -bury, -borough** qo'shimchalari Birlashgan Qirollikning aksariyat joylari nomining an'anaviy qo'shimchalaridir.

The King Uther Pendragon went to the bedchamber of Queen Igrayne.[7]

King va **Queen** so'zlaridan dunyoning boshqa hududlarida qo'llanilmaydi, chunki turli jamoalar bu pozitsiyasidagi insonlar uchun *prezident, imperator, roja* yoki shu kabi turli xil atamalarni tillarida tatbiq etganlar.

The castle was built of black stone and stood on a high cliff above a dark sea (10).[8]

Jamiyat rahbari yashaydigan hududni chaqirish ma'lum bir jamiyat va shu bilan bir qatorda tilga ishoradir va inglizlar "**castle**" ni afzal bilishgan, boshqa til sohiblari esa bhavan, house, libertas, qo'rg'on yoki boshqalarni ishlatishadi.

Find out some refuge, if thou wilt! but who may escape the doom of God?"[9]

Berilgan diskurs Britaniya xalqiga xos bo'lgan diniy birliklar qo'llanilgan bo'lib, Yaratganning g'azabidan qochib qutulib bo'lmasligi ifodalangan.

The sight of the place where the dead lay moved Aurelius to great sorrow, and he cast about in his mind how to make a worthy tomb over so many noble martyrs, who had died there for their country.[10]

Darhaqiqat, **martyrs** degani, o'z ixtiyori bilan diniy maqsadlarda katta qadrli biror narsani, ayniqsa, o'zining hayotini qurbon qiladigan shaxsdir. Ammo bu yerda qo'llanilgan *martyr* so'zi dindor emas, balki o'z vatanining ozodligi uchun kurashgan askarlardir. Boshqacha qilib aytganda, inglizlarda Vatan yo'lida, uni qo'riqlash yoki ozodligi yo'lida jon berish Oллоh yo'lida jon berish bilan bir xil.

And it befell at a certain great banquet and high feast which the king made at Easter-tide, there came, with many other earls and barons, Gorlois, Duke of Cornwall, and his wife Igera, who was the most famous beauty in all Britain[11].

Turli xalqlarda bir-birini takrorlamaydigan bayram, tantanalar mavjud, chunki ular boy merosning ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi. "**Easter-tide**" bu ham ingliz madaniyatiga xos ziyofat turlaridan biri bo'lib odatda, diniy, xususan Xristian diniga oid bo'lgan tantanali bayram yig'ilishi hisoblanadi. Bu bayramni ifodalovchi so'z boshqa din va millat egalari uchun lakuna hisoblanib, boshqa jamiyatning lisoniy shaxslari uchun abstrakt yoki semasiz so'zdir. "**Banquet**", "**high feast**" so'zlari ham ziyofatni bildiruvchi so'zlar bo'lib, odatda Britaniya mentalitetida bunday ziyofatlar biror-bir shaxs, uning yutug'i yoki diniy

jihattan katta dasturxon atrofida yig'ilishga nisbatan ishlatiladi. Darhaqiqat, bunday ziyofatlar ko'plab millatlarda uchrasa, ularning bosh konsepti yoki yig'inda bajariladigan udumlariga va shu yo'sinda nomlanishiga ko'ra tubdan farq qiladi.

Bundan tashqari, **“earls, barons, duke”** Angliya millati uchun xos bo'lgan yuqori lavozimli shaxslarning maxsus maqomlari bo'lib, boshqa madaniyatlar ularni boshqa yo'llar bilan vazir (O'zbekistonda), kansler, bosh vazir (Amerikada), rajya (Hindistonda), syogun (Yaponiya) va h.k deb atashadi.

When, therefore, the child is born, let him be delivered unto me, unchristened, at yonder postern-gate, and I will bestow him in the care of this good knight.”[12]

Xristianlik dini Britaniya xalqi bilan juda qadim tarixdan aralashib ketganligi sababli, bu dinga asoslangan ko'plab so'zlar mavjud. Misol uchun: Christendom, Christmas, Christmasberry and Christened. **Unchristened** fe'li xristian din vakillari uchun qo'llaniladi va bu urf-odat dinni qabul qilishdan oldingi holatni ifodalaydi.

Then came together all the bishops and the clergy, and great multitudes of people, and bewailed the king; and carrying his body to the convent of Ambrius, they buried it close by his brother's grave, within the "Giants' Dance.”[13]

“Bishops” va **“clergy”** bu diniy iboralar bo'lib, nasroniy cherkovida turli xil marosimlarda ayrim vazifalarni bajarish uchun tayinlangan guruhni anglatadi va aynan shu din sohiblari ishlatadigan lisoniy birliklardir. Boshqa nasroniy bo'lmagan tillar bu so'zlarni yoki ularning ekvivalentlarini ishlatmaydi, chunki boshqa dinlarda bu lavozimda umuman yo'q yoki boshqacha nomlanadi.

On Sunday, the knights and people of Winchester came to the cathedral. When the archbishop put the crown on the Arthur's head, all the people shouted, “long live the King”. Each knight's name was written on their siege (special seat at the round table) in letters of gold.[14]

Bu yerda misol qilib olingan so'zlar **“knights, crown, siege”** lingvomadaniyatning obyekt bo'lgan lakunalar bo'lib, ularning boshqa tilda haqiqiy ma'nolarini tushuntirish qiyin, chunki bu tushunchalar, xususan, demokratiya yoki avtokratiya tomonidan boshqariladigan jamiyatda uchramaydi.

Har bir xalq yashaydigan joyning tabiati, xalq ijodi, dini, adabiyoti, san'ati, ilm-fan, an'alarini aks ettiruvchi, to'plovchi va avloddan-avlodga yetkazuvchi til milliy-madaniy xususiyatlar jamlanmasidir. Unda nafaqat insoniyat mavjud bo'lgan dunyo, yashash sharoiti, balki o'zlikni anglash, mentalitet, milliy xarakter, turmush tarzi, urf-odatlar, qadriyatlar, ma'naviyati, dunyoqarashi ham o'z ifodasini topgan. Va yuqorida keltirilgan so'z va iboralarining mohiyatini tushunish uchun Britaniya madaniyati bilan tanishish kerak. Boshqa dunyo tillari singari, ingliz tili ham ingliz madaniy qadriyatlar, e'tiqodlar, urf-odatlar, turmush tarzi ta'siri ostida rivojlangan, shuning uchun ushbu jamoat tartibida paydo bo'lgan, ammo boshqa tilda ifodalash deyarli mumkin bo'lmagan so'zlarni uchratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sapir E. Selected works on linguistics and cultural studies. - M., 1993. -- p. 259-265)
2. Воробьев В. В. О статусе лингвокультурологии / IX Международный Конгресс МАПРЯЛ. Русский язык, литература и культура на рубеже веков. Т. 2. –Братислава, 1999. Батафсил маълумот учун қаранг: Воробьев В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М., 1997.-С-21-25.
3. <https://usajournalshub.com/index.php/tajssei/article/download/1005/953/>
4. The Legends Of King Arthur And His Knights, James Knowles, June 28, 2004.p-13
5. King Arthur and the Knights of the Round Table, Stephen Colbourn, 2008, Macmillan Heinemann ELT, ISBN 978-0-230-03444-0
6. King Arthur and the Knights of the Round Table, Stephen Colbourn, 2008, Macmillan Heinemann ELT, ISBN 978-0-230-03444-0
7. King Arthur and the Knights of the Round Table, Stephen Colbourn, 2008, Macmillan Heinemann ELT, ISBN 978-0-230-03444-0
8. King Arthur and the Knights of the Round Table, Stephen Colbourn, 2008, Macmillan Heinemann ELT, ISBN 978-0-230-03444-0
9. The Legends Of King Arthur And His Knights, James Knowles, June 28, 2004.p-16
10. The Legends Of King Arthur And His Knights, James Knowles, June 28, 2004.p-17
11. The Legends Of King Arthur And His Knights, James Knowles, June 28, 2004.p-19
12. The Legends Of King Arthur And His Knights, James Knowles, June 28, 2004.p-19
13. The Legends Of King Arthur And His Knights, James Knowles, June 28, 2004.p-21
14. King Arthur and the Knights of the Round Table, Stephen Colbourn, 2008, Macmillan Heinemann ELT, ISBN 978-0-230-03444-0